

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI KOREYS TILI FANI O‘QITUVCHILARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN KOREYS TILI FANIDAN MALAKA SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya koreys tili fanidan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovining umumiy tamoyillari, me’yoriy asoslari, baholashning qamrovi, baholash mezonlari va malaka sinovini o‘tkazish tartibiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning koreys tili fani o‘qitish metodikasi bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Koreys tili fani o‘qituvchilari uchun malaka sinovida jami 50 ta test savollari (mutaxassislik fanidan 35 ta, pedagogik mahorat fanidan 10 ta va kasbiy standartdan 5 ta) topshirig‘i taqdim etiladi va test topshiriqlarini bajarish uchun 105 daqiqa

(mutaxassislik fani, pedagogik mahorat hamda kasbiy standart) vaqt beriladi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun sohasi	Baholanadigan konstruktlar	Test topshiriqlari soni
I. KOREYS TILI		35 ta
I. O'qib tushunish (1–15 savollar)		
1.1. Ilmiy-ommabop matnni o'qib tushunish	- matnning asosiy g'oyasi, maqsadi va auditoriyasini, muallif pozitsiyasini aniqlash; - matnda ochiq aytilgan muhim detallarni tushunish; - matnda ochiq aytilmagan ma'lumotlar, fikrlar, g'oyalarni anglash; - matndagi fakt va fikrni farqlash; - ma'lumotlarni izohlash, taqqoslash va umumlashtirish; - matnda qo'llanilgan leksik birliklarning ma'nosini kontekstdan anglash.	6
1.2. Voqeaband matnni o'qib tushunish	- matnning asosiy g'oyasini aniqlash; - matnda ochiq aytilgan muhim detallarni tushunish; - matnda ochiq aytilmagan detallarni anglash; - matnda tasvirlangan voqealar ketma-ketligini tushunish; - voqea ishtirokchilarini tavsiflash; - matnda qo'llanilgan leksik birliklarning ma'nosini kontekstdan anglash.	5
1.3. Matn yaxlitligini tushunish	- matnning umumiy yaxlitligi va mazmuniy birligini tushunish - matn yaxlitligini tiklash (gaplar yoki abzaslar tartibini to'g'ri joylashtirish orqali); - matn strukturasi va qismlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash (kirish, rivojlantirish, xulosa); - matn qismlari o'rtasidagi mantiqiy va diskursiv bog'lanishlarni tushunish (masalan, sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlash, ketma-ketlik).	4
II. Tilning amaliy qo'llanilishi (16–35 savollar)		

2.1. Grammatika	- grammatik strukturaning nomini va qo'llanilish o'rinlarini tanlash; - berilgan kontekstga mos grammatik birlik tanlash; - berilgan nutq namunasida grammatik xatoni topish va tushuntirish; - berilgan gap yoki jumlaning grammatik transformatsiya qilish (o'zgartirish); - grammatik xato sababini berilgan variantlar ichidan tanlash; - berilgan gapning grammatik jihatdan to'g'ri o'zgartirilgan variantini aniqlash; - o'xshash grammatik shakllardan ma'noga eng mosini tanlash.	7
2.2. Leksika	- berilgan kontekstga mos leksik birlikni tanlash; - berilgan leksik birlikning kontekstdagi ma'nosini aniqlash; - berilgan leksik birlikka kontekstga mos sinonimni tanlash; - so'z yasalishi qoidalari asosida berilgan kontekstga mos so'z yasash; - ma'nosi yaqin bo'lgan leksik birliklar orasidan kontekstga eng mosini tanlash (near-synonyms: say / tell / speak / talk); - leksik xatoni aniqlash (noto'g'ri tanlangan so'zni topish); - berilgan kontekstga mos bo'lmagan leksik birlikni aniqlash. (collocation, register yoki ma'no nomuvofiqligi).	7
2.3. Pragmatika	- berilgan vaziyatga mos og'zaki va (yoki) yozma nutq namunasini tanlash; - berilgan og'zaki va (yoki) yozma nutq namunasining kontekstda nazarda tutilgan ma'nosini anglash (literal meaning (to'liq ma'no), irrelevant interpretation, opposite meaning, exaggerated meaning); - berilgan og'zaki va (yoki) yozma nutq namunasining ijtimoiy va kommunikativ jihatdan kontekstga mosligiga baho berish. - diskurs (suhbat) asosida mos javobni tanlash (random statement, off-topic comment, irrelevant fact, confusing remark); - berilgan kontekstga mos muloqot strategiyasini aniqlash (making suggestion instead of request, giving unrelated information, expressing opinion instead of asking, ignoring speaker's intent); - xohish yoki niyatni farqlash (giving direct order, expressing anger, asking irrelevant question, making a statement unrelated to intent).	6

Matnlarga qo'yiladigan talablar

2-jadval

T/r	Matnlar	Mazmuniy talabalar	Hajmiy talablar
1	Ilmiy-ommabop matn	Standart koreys tilida yozilgan, muayyan sohaga bag'ishlangan, keng auditoriyaga (nomutaxassisga) mo'ljallangan ilmiy-ommabop matn (gazeta, jurnal yoki internet maqolasi)	350-400 so'z
2	Voqeband matn	Muayyan voqea (real yoki xayoliy) tasvirlangan matn (gazeta yoki internet maqolasi yoxud badiiy asardan parcha)	350-400 so'z
3	Matn yaxlitligi	Standart koreys tilida yozilgan, keng auditoriyaga mo'ljallangan, muayyan muammoga bag'ishlangan matn (gazeta yoki internet maqolasi)	250-300 so'z

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

3-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10 ta
2.1. Umumiy pedagogika va pedagogik mahorat	- darsni rejalashtirish va sinfni boshqarishdagi umumiy yondashuvlarni bilish; - darsni rejalashtirish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatga (ssenariyga) qo'llay olish; - darsni rejalashtirish yoki sinfni boshqarish bo'yicha qarorning berilgan vaziyatda mosligiga baho berish.	5

2.2. Koreys tili o'qitish metodikasi	- koreys tili o'qitish metodikasiga oid yondashuvlar, nazariy ramkalar (<i>framework</i>) va metodlarni farqlay olish; - koreys tili o'qitish metodikasiga oid yondashuvlar, nazariy ramkalar va metodlarga oid asosiy terminologiyani bilish; - berilgan yondashuv doirasida darsga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish; - berilgan yondashuv doirasida vaziyatga (ssenariyga) mos harakat yoki faoliyat turini tanlash; - qamrab olinadigan yondashuvlar va metodikalar: Structural Approach, TBLT, PPP, Lexical Approach, Functional Approach, Communicative Approaches, Grammar-Translation, Guided Discovery, Content-Based Learning, CLIL.	5
Jami		15 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

4-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish va tushunish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining natijasini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15% vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda

taqdim etiladi. Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Koreys tili

1. 이숙희, 김숙희 문화가 있는 한국어 읽기 1 다락원 (2019)
2. 이숙희, 백다현 문화가 있는 한국어 읽기 2 다락원 (2019)
3. 이숙희, 박인공, 한지희 문화가 있는 한국어 읽기 3 다락원 (2019)
4. 이숙희, 장지은, 한지희 문화가 있는 한국어 읽기 4 다락원 (2019)
5. 이숙희, 백다현, 김숙희 문화가 있는 한국어 읽기 5 다락원 (2020)
6. 이숙희, 백다현, 김숙희 문화가 있는 한국어 읽기 6 다락원 (2020)
7. 정성준 서울대 한국어 1B 서울대 학교 언어교육원 (2013)
8. 정성준 서울대 한국어 2A 서울대 학교 언어교육원 (2013)
9. 정성준 서울대 한국어 2B 서울대 학교 언어교육원 (2013)
10. 전영철 서울대 한국어 3A 서울대 학교 언어교육원 (2015)
11. 전영철 서울대 한국어 3B 서울대 학교 언어교육원 (2015)
12. Fun fun Korean 재미있는 한국어 2
13. Lee Suk-hee, Kim Sook-hee, Oh Jeong-min Complete Guide to the TOPIK 2 다락원 (2018)
14. 조정균 비타민 한국어 2 다락원 (2017)
15. 김제열, 전나영, 이은경, 장유진 연세 한국어 2-1 연세대학교 대학출판문화원 (1955)
16. 김제열, 전나영, 이은경, 장유진 연세 한국어 3-2 연세대학교 대학출판문화원 (1955)

Pedagogika, metodika

1. 한국어 교육학 개론 (Korean Language Education: An Introduction) 이정희(2021)
2. 외국어로서의 한국어교육론 (Teaching Korean as a Foreign Language) 강현화(2020)
3. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.